

## I BOB. “TAQQOSLAMA MENEJMENT” FANNING PREDMETI VA USULLARI

- C** 1.1. Taqqoslama menejmentning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillar: dunyo mamlakatlarining iqtisodiy toifalanishi, boshqaruvning hilma-hilligi, ijtimoiy farovonlik.
- 1.2. Taqqoslama menejmentni rivojlanish bosqichlari va G‘arbda menejment nazariyasasi va amaliyoti.
- 1.3. Taqqoslama menejmentni fan sifatida o‘rganishning mohiyati va zaruriyati.


### **1.1.Taqqoslama menejmentning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan omillar: dunyo mamlakatlarining iqtisodiy toifalanishi, boshqaruvning hilma-hilligi, ijtimoiy farovonlik**

“Taqqoslama menejment” umumiy menejment nazariyasining bir qismi bo‘lib, korxona va tashkilotlar boshqaruv tizimidagi turli ko‘rinish va qonuniyatlarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Boshqaruv jarayonlarini taqqoslashda, eng avvalo, jahon tajribasidagi rivojlangan mamlakatlar alohida o‘rin egallaydi. Bunday farovonlik darajasidagi davlatlarda iqtisodiy boshqaruv hatto asrlar ichida chiniqib, juda ko‘p marta sinovlardan o‘tgan. Bu munosabatlar chiniqqan, murakkablashgan, samaradorligini amalda isbotlagan va iqtisodiyotni yuqori cho‘qqilarga olib chiqib, rivojlanishning tezlashuvini ta’minlagan. Yuqori iqtisodiy boshqaruv pozitsiyasidagi mamlakatlar jamiyat taraqqiyotning moddiy asosiga aylanib, uning barcha muammolarini xal qilishda negiz hisoblanadi. Chunki bu mamlakatlar o‘z taraqqiy etgan iqtisodiyotlariga asoslangan xolda ichki va tashqi vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlariga ega bo‘lgan davlatlardir. Bundagi eng muhim tomon yuqori texnikali ishlab chiqarish xanizmlariga ega bo‘lish, barcha xalq xo‘jaligi soha va tarmoqlarini sanoat usuli bilan ta’minlanganligi bo‘lib, bu yoppasiga yuqori unumli mehnatni joriy etish imkonini tug‘diradi. Bozor usuli ta’siri ostida iqtisodiyotning tuzumli tuzilishi tub o‘zgarishlarga olib kelib, birinchi sektor hisoblangan tabiatga asoslangan qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik, baliqchilik yalpi ichki mahsulotda orqaga surilib, birinchi o‘ringa xizmat ko‘rsatish, so‘ngra sanoat

va qurilish chiqadi. Sanoatda esa ishlov beruvchi tarmoqlar etakchi o'rinni egallab, sanoat asosini tashkil etgan. Sanoat usuli xalq xo'jaligini barcha sohalariga tarqalib, uning texnologik asosini tashkil etgan. Bu esa umumiy rivojlanishni ta'minlab, jamiyat talabini qondirish jarayonini tezlashtirgan.

Bozor iqtisodiyoti sivilatsiyalashgan bo'lib, inson manfaatiga qaratilishi, ijtimoiy yonalishda bo'lishligi asos hisoblangan. Yovvoyilashgan erkin raqobatning oldini olish yollari qo'llanilib, madaniy usullari o'rinni egallagan. Bozor munosabatlari marketing va konsyumerizm bilan mustahkamlanib, iste'molchilar manfaatidan kelib chiqishga bo'ysuna boshlagan.



### 1.1.1-rasm. Dunyo mamlakatlarini toifalashtirish

Bozor munosabatlari jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy xolatining yuqori darajali bo‘lishini ta’minlay oldi. Demokratik tartiblar hukmronligi ta’minlandi. Aholining huquqiy erkinligi o‘rnatilib, insoniy manfaatlar ustuvorligi ta’minlana boshladi. Insoniy hayotiy kafillilikning yuzaga kelishi eng muhim va asosiy yutuqlardan hisoblanadi.

Iqtisodiy erkinlik, demokratik xolat, inson huquqlarini ta’minlash kabilar jamiyat taraqqiyotiga aylandi. Bunda rivojlangan mamlakatlarda aholi turmush darjasи, turmush sifati etakchilik qilib, taraqqiyotning eng asosiy ko‘rsatkichlarini tashkil etadi. Turmush darajasining asosini moddiy ta’minlanish, hayotiy sharoitlar mavjudligi tashkil etadi. Bu mo‘l-ko‘lchilikning ta’minlanishini zarur shart qilib qo‘ysa, shu bilan birga buning inson hayoti bilan bevosa bog‘liq bo‘lishini talab etadi. Xaridorlik qobiliyatining yuqori darajada bo‘lishi erkin va to‘la iste’molga yol ochadi. Bular esa turmush darjasи yuqoriligining asoslarini belgilaydi. Tovarlar va xizmatlar mo‘l-ko‘lchiligining inson iste’moliga qaratilishi shaxsiy daromadlar darajasiga bog‘liqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda shaxsiy daromad boshqalarga nisbatan juda yuqori bo‘lib, bu turmush darajasining o‘sib borishida asos hisoblanadi. YUqorida ta’kidlaganimizdek, texnik taraqqiyot yuqoriligi, yalpi ichki mahsulot tarkibi takomillashganligi, mehnat unumdarligining yuqoriligi, maoshlarining kattaligi, daromadlarning yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi. Rivojlanyotgan mamlakatlarga nisbatan bu sohadagi farq juda katta bo‘lib, 8-10 martani tashkil etadi. Aytaylik, AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlarini Sobiq Ittifoq respublikalari bilan taqqoslasak, o‘rtacha bir ishchining kundalik yaratgan mahsuloti miqdori 8-9 marta ko‘p. Yoki mahsulot tarkibidagi mehnat qismini olsak, rivojlangan mamlakatlarda 60-80% ni tashkil etsa, suveren mustaqil davlatlarda 30-35%dan oshmaydi.

Rivojlangan mamlakatlarda ish joylari ancha qimmat baholanadi va ish kuchi juda qadrlidir. SHuning uchun ham mehnat unumdarligini oshirishga qaratilgan tadbirlar

juda qadrli hisoblanadi va kam mehnatli mahsulot ishlab chiqarish muhim bo‘lib, avvalo intellektual mehnatga talab yuqoridir..

Maoshlarning yuqori bo‘lishi, daromadlarning kattaligi iste’molning yuqori bo‘lishini ta’minlaydi va iste’molning to‘la hamda sifatli bo‘lishiga asos soladi. Turmush darajasining yuqoriligi va o‘sib borishi turmush sifatini ta’minlaydi. Turmush sifati esa avvalo iste’mol darajasi, hayotiy sharoitlarning mavjudligi bilan bog‘liqdir. Turmush sifati yaxshi yashash, erkin hayot kechirish va buning uchun barcha moddiy va nomoddiy sharoitlarning mavjudligi bilan belgilanadi. SHuning uchun ham turmush sifatini faqat moddiy boyliklar bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Buning omillari juda ko‘p bo‘lib, sivilizatsiyali jamiyat taraqqiyotining eng katta muvaffaqiyati hisoblangan xolda u eng muhim xodisadir.

Turmush sifati kasal bo‘lishlik, shaxsiy xavfsizlik, tabiiy muxit, ishsizlik, turli xil tovarlar va xizmatlarni iste’mol etish darajalari bilan belgilanib, eng muhimi umr uzoqligidir. Ma’lumki, rivojlangan mamlakatlarda o‘rtacha umr uzoqligi 85 yilga teng bo‘lsa, hatto bu ko‘rsatkich 25 yilga teng mamlakatlar ham mavjud. Eng umr uzoqligi Yaponiya bo‘lib 87 yilni tashkil etadi. Rosiyada bu ko‘rsatkich 65 yildan iborat.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanishning eng ma’qul usuli, chunki bu imkoniyatlardan maksimal foydalanish sharoitini yaratadi. SHu bilan birga iste’molchilar manfaatidan kelib chiqib, iqtisodiy taraqqiyotni xalq manfaatiga bog‘lay oladi. Rivojlangan mamlakatlardagi erishilgan iqtisodiy daraja bozor munosabatlari rivoji natijasidir. Bu shunchalik inson manfaatlarini tta’minlay oladiki, ko‘pchilik bunday mamlakatlarga xavas bilan qarab, shu darajaga erishishni istaydi, shunday mamlakatlarda yashashga intiladi. Bunday insonga xos haqiqiy hayot kechirish uchun mos iqtisodiyot bozor munosabatlari tufayli yaratilishini rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasi amalda isbotlab bermoqda. Ma’lumki, jahon iqtisodiy standartlari rivojlangan mamlakatlar tajribasidan olinadi. SHu bilan birgalikda ekologik muammolarni xal qilishda ham rivojlangan mamlakatlar bozor tajribasi ustunlik qilmoqda.

Jahon iqtisodiyoti ko‘p turli iqtisodiyotlardan iborat o‘lib, u bir necha guruhlarga bo‘linadi. Buning ichida 3 xil yirik guruhlarga bo‘linishi e’tiborlidir. Bular: rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotli mamlakatlardir. Mamlakatlarni bu asosiy guruhlarga qo‘sishlik turli usul (kriteriya)lar bilan belgilanadi. Eng avvalo iqtisodiyot tafsiloti, ya’ni bozor yoki o‘tkinchi iqtisodiyot bilan mamlakatlar farqlanadi va baholanadi. So‘ngra ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bunda yalpi ichki mahsulot (YaIM) ishlab chiqarish xajmi uning aholi jon boshiga to‘g‘ri kelishi hamda YaIMning tarmoqlar bo‘yicha tuzumi, turmush darajasi va sifati bilan o‘lchanadi.

Jahon siyosiy xaritasi global miqyosdagi bir necha siyosiy jarayonlar ta’sirida shakllangan. Shularning ichida Birinchi va Ikkinci jahon urushlari hamda ularning oqibatlari bilan bog`liq holda davlatlarning vujudga kelishi, mustamlaka tizimining yemirilishi hamda bir necha o`nlab mustaqil davlatlarning barpo bo`lishi, qo`shilmaslik harakatining rivojlanishi va boshqa jarayonlar e`tiborga loyiqidir. Jahon siyosiy xaritasining shakllanishida XX asr 80-yillarining so`nggi va 90-yillarining boshlarida bo`lib o`tgan siyosiy voqealar: ikki nemis davlatining qo’shib, yagona Germaniya davlatining tashkil etilishi, Chexoslovakiya ornida Chexiya va Slovakiya mustaqil respublikalarining barpo bo`lishi, Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining parchalanib ketishi natijasida suveren Xorvatiya, Sloveniya, Makedoniya, Bosniya va Gersogovina respublikalari hamda Serbiya va Chernogoriya davlatlarining shakllanishi va, ayniqsa, sobiq Ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida, dastlab Litva, Latviya va Estoniya, keyinchalik esa Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belarus, Moldova, Gruziya, Armeniya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O‘zbekiston respublikalarlarning mustaqil davlatlar sifatida dunyo siyosiy kartasida o‘z o‘rinlariga ega bo`lishi juda muhim ahamiyat kasb etdi. Dunyo siyosiy xaritasidagi davlatlar va mamlakatlar nisbati hamda soniga dastlab (1997-yil, 1-iyulda) Buyuk Britaniya mustamlakasi Gonkong (Syangan)ning, keyinchalik (1999-yil, dekabr oyida)

Portugaliya mustamlakasi Makao (Aomin)ning Xitoy Xalq Respublikasi tarkibiga kirishi, 2000-yilda esa BMT tomonidan Indoneziya tarkibida bo'lgan Sharqiy Timorga alohida maqom berilishi hamda 2008-yilda Chernogoriyani Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasidan chiqib mustaqillikka erishishi ham ma'lum ta'sir ko'rsatdi. Undan tashqari, 2011-yilda Janubiy Sudan Sudan tarkibidan ajralib chiqdi.

Hozirgi vaqtda dunyo siyosiy xaritasida 227 mamlakat mavjud bo'lib, ulaming 149 tasi respublika, 45 tasi monarxiya, 9 tasi mustamlaka, 21 tasi boshqa (masalan, "hamdo'stlik" tarkibidagi mamlakatlardan tashkil topgan, Buyuk Britaniya general gubernatori boshqaradigan Karib dengizi havzasidagi hamda Fransiyaga qarashli "Okeaniya"dagi mamlakatlar) shaklidagi mamlakatlar hamda 3 tasi maqomi noma'lum mamlakatlardir (1.1.1-jadval).

### **1.1.1-jadval**

**Jahon mamlakatlari**

<b>Davlat boshqaruvi shakli</b>	<b>Jami mamlakat</b>	<b>Afrika</b>	<b>Amerika</b>	<b>Osiyo</b>	<b>Evropa</b>	<b>Avstraliya va Okeaniya</b>
Jami mamlakat	227	58	50	4 9	46	24
I. Respublikalar, shu jumladan:	149	52	25	3 3	32	7
- prezidentlik	103	48	20	1 7	13	5
- parlamentlik	36	3	4	8	19	2
- sotsialistik	6	-	1	5	-	-
- islom	4	1	-	3	-	-
II. Monarxiya	45	3	9	1 4	12	7
- konstitutsion	39	3	9	9	11	7
- mutlaq	4	-	-	4	-	-
- teokratik	2	-	-	1	1	-
III. Mustamlaka va bosh qa turdag'i tobelik	30	2	16	-	2	10
- mustamlaka	9	1	6	-	1	1

- boshqa shakldagi	21	1	10	-	1	9
- IV. Maqomi noma`lum mamlakatlar	3	1	-	2	-	-

Hozirgi vaqtida davlatlarni ularning daromadlari bo`yicha ayrim guruhlarga ajratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Davlatlarni iqtisodiy daromadlari bo`yicha guruhlash "Jahon Banki Atlasi" metodikasi doirasida amalga oshirilgan. Unda binoan jahon mamlakatlari aholi jon boshiga to`g`ri keluvchi milliy daromadiga ko`ra 4 ta guruhga taqsimlangan:

1. Past daromadli – 935 AQSH dollaridan kam;
2. O`rtacha daromadli – 936-3705 AQSH dollari doirasida o`zgaruvchi mamlakatlar guruhi;
3. Daromadi o`rtacha ko`rsatkichdan yuqori, ya`ni 3706 dollardan 11455 dollargacha bo`lgan doirada o`zgaruvchi mamlakatlar guruhi;
4. Yuqori daromadli mamlakatlar, ularda aholi jon boshiga 11456 AQSH dollaridan ortiq milliy daromad to`g`ri keladi (World Development, 2009).

Ana shu metodik yondashuvdan kelib chiqqan holda jahon mamlakatlari yuqori daromadlidan past daromadliga qarab 4 ta guruhga bo`lingan.

Birinchi (yuqori daromadli) guruhga 62 ta mayda, kichik, katta va yirik mamlakatlar kiradi. Bularning ichida mayda Farer orollari, Guam, Aruba kabi mamlakatlar bilan bir qatorda, iqtisodiy salohiyati ulkan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya va boshqa davlatlar ham bor.

Ikkinci guruhni milliy daromadi aholi jon boshiga 3706 dollardan 11455 dollargacha o`zgaruvchi mamlakatlar (umumiyligi soni 41 ta) tashkil etadi. Shunday davlatlar qatoriga Polsha, Meksika, Venesuela, Livan, JAR, Malayziya kabi mamlakatlar bilan birga kichik va juda kichik Amerika Samoasi, Fiji, Mayotta mamlakatlari ham kiradi.

Uchinchi guruh Xitoy, Indoneziya, Filippin, Armeniya, Ozarbayjon, Ukraina, Kiribati, Vanuatu, Sharqiy Timor va boshqa shu kabi mamlakatlardan iborat.

To`rtinchi guruhga Kambodja, KXDR, LXDR, Myanma, Vyetnam bilan birga Qirg`iziston, Tojikiston, Yaman kabi mamlakatlar kiritilgan.

Jahon mamlakatlari iqtisodiy ko`rsatkichdan tashqari demografik, geografik, geosiyosiy va boshqa turdagи salohiyatiga binoan ham ayrim guruhlarga ajratiladi. Jumladan, iqtisodiy rivojlangan birinchi guruh mamlakatlari ichida AQSH, Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada ikkinchi guruhga mansub Rossiya bilan birga ulkan iqtisodiy, demografik, geosiyosiy, harbiy va hududiy salohiyatga ega "Sakkizlik davlatlari" ni tashkil qiladi. Ushbu mamlakatlar 2011-2012-yillardagi ma`lumotlarga binoan jahon bo`yicha quyidagi mutlaq va nisbiy ko`rsatkichlarga ega.

Rossiyani "Sakkizlinchi davlat" sifatida mazkur guruhga qabul qilinishida, dastavval, uning iqtisodiy salohiyati, geosiyosiy mavqeyi va ulkan harbiy qudrati hisobga olindi.

"Sakkizlik davlatlari" ning o`rtacha har biriga salkam 5 mln. km.kv maydon, qariyb 110 mln. aholi, 4,4 trln. Dollar YIM hamda 1,5 trln. Dollarga teng tovar aylanmasi to`g`ri keladi. Eng muhimi, ushbu davlatlarda jahon YIM ning 55,5% i jamlangan.

Rivojlangan mamlakatlar ichida ko`chirilgan kapitalizm mamlakatlarini (Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR va b.) hamda yangi sanoatlashgan mamlakatlar (Singapur, Koreya Respublikasi, Tayvan va b.) ni ham ajratish mumkin. Undan tashqari, asosan, birinchi va ikkinchi guruhlarga mansub "neft eksport qiluvchi davlatlar", ikkinchi-to`rtinchi guruhlarga mansub o`tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar ham alohida e`tiborga loyiq. Katta va ulkan iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar – Xitoy, Hindiston, Braziliya, Rossiya va Meksika jahoning tayanch mamlakatlari guruhini tashkil etadi. Uchinchi va, ayniqsa, to`rtinchi guruh mamlakatlarining aksariyat qismi rivojlanayotgan davlatlar toifasiga kiradi. Rivojlanayotgan davlatlar ichida iqtisodiy taraqqiyotda ortda qolayotgan mamlakatlar alohida e`tiborga loyiq. Bunday

mamlakatlar Lotin Amerikasida amalda deyarli qolmadi. Lekin Osiyo va, ayniqsa, Afrikada ularning soni hanuzgacha anchagina. Shunday davlatlar qatoriga, birinchi navbatda, Afrika materigida Burkina-Faso, KDR, Eritriya, Liberiya, Niger, Ruanda, Serra-Leone, Togo, Uganda, Zimbabve, Burundi, Efiopiya, Malavi, Mozambik; Osiyo qit`asida Afg`oniston, Nepal, Butan, Bangladesh, Laos va boshqalar kiradi.

Keyingi davrda Varshava Sharhnomasi Tashkilotining faoliyati barham topdi. Shundan keyingi davrda davlatlar o`rtasida o`zaro hamkorlik va bir-birini tushunishga bo`lgan intilish jarayoni rivojiana boshladi. Bunday holat Rossiyabilan AQSH va G`arbiy Evropa mamlakatlari o`rtasidagi munnosabatlarda ham o`z ifodasini topa boshladi. Lekin "sovuj urush" barham topganidan keyin yalpi xavfsizlikka asosiy tahdidni etnik, mintaqaviy, mahalliy mojarolar va davlatlar ichidagi jangari separatizm solmoqda.

Shu bilan birga, Yaqin Sharq, Kosovo, Bosniya, Afg`oniston va boshqa qator mintaqaviy mojaro va nizolarni tinch yo`l bilan bartaraf etishda sezilarli ijobiy siljishlarga erishildi. Bunda BMT hamda NATOning o`rni va ahamiyati katta bo`lganligini ta`kidlab o`tish o`rinlidir. "Bizningcha, o`z tarkibida demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Evropa qit`asidagina emas, balki o`zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va "Tinchlik yo`lida hamkorlik" dasturi hisobiga juda katta Evrosiyo mintaqasida ham tinchlik o`rnatuvchi omil bo`lishi mumkin".

NATO mamlakatlari tomonidan "Tinchlik yo`lida hamkorlik" dasturining qabul qilinishi va hayotga joriy etilishi siyosiy vositalar yordamida ko`plab mintaqaviy mojarolarni ijobiy hal qilishga imkon berdi.

Yer aholisi soni umumiy tug'ilish darajasining pasayishiga qaramay, 2050 yilga borib dunyo aholisi soni - hozirgi 7,6 milliard kishidan 9,8 milliardga, 2100 yilda esa 11,2 milliardga ko'payadi. Bu haqda BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti hisobotida ma`lum qilindi.

Tadqiqotga ko'ra, aholi sonining o'sishi asosan 47 eng kam rivojlangan mamlakatlar hisobiga to'g'ri keladi, u yerlarda tug'ilish darajasi bir ayolga 4,3 bolani tashkil qiladi. Bu davlatlarning hozirda 1 milliardni tashkil qiluvchi aholisining umumiy soni 2050 yilga borib 1,9 milliardga yetadi. 26 Afrika mamlakatining shu davrdagi aholisi ham ikki barobarga ko'payadi.

Umumiy tug'ilish darajasining pasayishda davom etishiga qaramay, hozirgi yiliga 83 million kishiga oshib boruvchi tendensiya saqlanib qolinishi kutilmoqda, deya taxmin qilinmoqda. Ular umumiy tug'ilish darajasining pasayishini Yer aholisining qarishi bilan bog'lashmoqda. Prognozlarga ko'ra, 2100 yilga borib 60 yoshdan katta kishilar soni uch barobarga oshadi va 3,1 milliardni tashkil qiladi. BMT ma`lumotlariga ko'ra, 2010-2015 yillarda Yer aholisining 46 foizi yashovchi 83 mamlakatda tug'ilish darajasi keragidan past ko'rsatkichlarni qayd etgan.

Bundan xulosa shuki, dunyoda 20 davlat yer shari quruqligining 61,78% tashkil qilar ekan, dunyoda 20 davlat yer shari aholisining 70,55%ni hamda dunyoda 20 davlat jahon yalpi ichki mahsulotini 82,45%ni tashkil qilar ekan. E'tibor bersangiz turli ranglarga bo'yalgan mamlakatlar bu uch ko'rsatkichda ishtirok etgan: ya'ni, Rossiya yer shari quruqligini 11,48% egallagan holda 2,06% dunyo aholisiga ega, shu bilan birga 2,18% dunyo yalpi ichki mahsulotida ulushi bor.

YUqori darajali ko'rsatkichga 24 mamlakat ajratilgan bo'lib, ularning aholi soni 13,5 %ga teng bo'lgan xolda umumiy yalpi mahsulotda 80%ga teng bo'lgan. Aksincha, past darajali mamlakatlar soni 45 ta bo'lib, aholining miqdori 55 %ga teng bo'lgan xolda umumiy YAIMning 5%inigina tashkil etgan. Jon boshiga olganda YaIM 324 dollar bo'lib, yuqori darajali mamlakatlarga nisbatan 71 marta pastdir. Iste'mol xajmini taqqoslasak, bu ko'rsatkich bo'yicha tafovut 60 barobarga to'g'ri keladi.

O'rta darajadagilarga nisbatan ham aholi jon boshiga YaIM 11 barobar va iste'mol xajmi bo'yicha esa 10 barobar yuqoridir.

Yuqori darajadagilar albatta rivojlangan mamlakatlardir. Bular bilan boshqa mamlakatlar iqtisodiy darajasidagi farq juda katta. Ayniqsa past darajali mamlakatlar bilan taqqoslash keskin farqlar mavjudligini ko'rsatadi. SHu bilan birga rivojlangan mamlakatlar juda katta imkoniyatlarga egaligi va ustuvor ahamiyatli istiqodiyot darajasida ekanligini bildiradi.

Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) qator hamkor tadqiqot markazlari bilan birgalikda mamlakatlarning innovatsion rivojlanishiga doir reytingini tuzdi. JIMT matbuot xizmati ushbu ro'yxatni taqdim etdi.

Global reytingning ilk uch o'rni Shveytsariya (1-o'rin), Shvetsiya (2) va Niderlandiya (3)ga nasib etdi. Ta'kidlash joizki, Shveytsariya yetti yildan beri mazkur reytingda yetakchilik qilib keladi.

AQSh ham 2016 yilgi reytingdagi o'rnini saqlab qolib, to'rtinchi o'ringa joylashdi. Beshinchi o'rinda Birlashgan Qirollik nomi qayd etildi, bu mamlakat o'tgan yilgi reytingda kuchli uchlikka kiritilgandi. Reytingning oltinchi o'rnida esa Daniyani ko'rish mumkin. Daniya o'tgan yilga nisbatan ikki pog'ona ko'tarilgan.

Innovatsion rivojlangan davlatlar reytingining kuchli o'nligidan shuningdek, Singapur (7), Finlyandiya (8), Germaniya (9) va Irlandiya (10) mamlakatlari o'rin olgan. Osiyo qit'asidan etakchilar - Singapur (7), Janubiy Koreya (11) va Yaponiya (14).

127 mamlakat ishtirokidagi reytingni tuzishda institutlar, ta'lim va infratuzilmaning rivojlanishi, biznes uchun yaratilgan sharoitlar kabi omillar inobatga olingan. Reytingni tuzishda mualliflar 30dan ziyod davlat va xususiy manbalar ma'lumotlariga asoslanishdi. Joriy yildagi tadqiqotning asosiy mavzusi - qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ishlab chiqarishda innovatsiyalarning qo'llanishi.

Markaziy Osiyo mamlakatlaridan ro'yxatning 78-o'rnida Qozog'iston, 93-o'rnida Tojikiston va 94-o'rnida Qirg'iziston nomlari keltirilgan. O'zbekiston va Turkmaniston reytingda yo'q.

Rivojlangan mamlakatlar qatoriga G‘arbiy Evropa mamlakatlarining aksariyati, AQSh, Kanada, Yaponiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlar kiradi. SHu bilan birga 1997 yildan boshlab janubiy Koreya, Singapur, Gonkong, Tayvan va Isroilni krita boshlandi. SHunday qilib bunday mamlakatlar soni 30 taga etdi. Albatta bularning soni ko‘payib boradi. Bu avvalo Yevropa Ittifoqiga qo‘shiladigan Polsha, Vengriya, CHexiya, Sloveniya, Kipr, Estoniyalar hisobiga bo‘ladi.

Rivojlangan mamlakatlar ichida YAIM bo‘yicha eng salmoqliklari bo‘lgan “Yettiliklarni” ajratadilar. Bular:AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya, Kanada, Italiyalardan iborat.


Keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, bu mamlakatlar haqiqatdan ham jahonda eng iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar va har tomonlama kuchli, inson taqdirini belgilovchi iqtisodiy yuqori ko‘rsatkichlarga ega.

**G20-Yigirmatalik guruh** (rasman: ingl. Group of Twenty Finance Ministers and Central Bank Governors) — Moliya vazirlari va Markaziy banklar uchun xalqaro anjumanlar muhokama qilinadigan forum. Va o‘z ichiga 20 iqtisodiy kuchga ega mamlakatlar: 19-tasi yirik iqtisodiy mamlakatlar va Yevropa maslahati kengashi hamda Evropa Komissiyasi bilan Evropa Ittifoqi G20 a’zolari hisoblanadi. Bundan tashqari G20 sammitlarida odatda xalqaro tashkilotlar doimiy ishtirokchilar ro‘yxatidan joy olgan. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, Jahon banki va Birlashgan Millatlar Tashkiloti shular jumlasidandir.

Umumiylis obʼyasi G20 jahon iqtisodiyotining 90 % Yalpi ichki mahsulotni, 80 % Xalqaro savdoni (Yevropa Ittifoqi bilan qo‘shib hisoblaganda) va Yer aholisining uchdan ikki qismini tashkil qiladi.

Xalqaro moliya tizimiga tegishli bo‘lgan savollar bo‘yicha va hamkorlik uchun asosiy forumlardan hisoblanadi. 2008-yilga qadar G20 biron bir oliy maqomda sammitlar o‘tkazmagan va sammitning asosiy faoliyat tartibi har yili moliya vazirlari

va markaziy bank raislarining oliy maqomda uchrashuvlar o‘tkazishi shular qatoriga kiritilgan. 90-nchi yillarda ro‘y bergan Moliyaviy inqirozga javoban tashkil



etilgan va biron bir rivojlanayotgan mamlakatlar jahon iqtisodiyoti muammolarini muhokama qilishga va kerakli choralar qabul qilinishi huquqiga ega mamlakatlar (engl. emerging-market countries) qatorida qayd etilmagan. qilishga va kerakli choralar qabul qilinishi huquqiga ega mamlakatlar (engl. emerging-market countries) qatorida qayd etilmagan


**1.1.2-пачм. G20 а’золари.** (То‘қ ко‘к rangda Katta yigirmatalik а’золари belgilangan. Och-havorangda Evropa Ittifoqi а’золари belgilangan).

### **G20 mamlakatlari**

1.	 <u>Avstraliya</u>	11.	 <u>Xitoy</u>
2.	 <u>Argentina</u>	12.	 <u>Meksika</u>
3.	 <u>Braziliya</u>	13.	 <u>Rossiya</u>
4.	 <u>Birlashgan</u>	14.	 <u>Saudiya</u>
<b>Qirollik</b>		<b>Arabistonli</b>	
5.	 <u>Germaniya</u>	15.	 <u>AQSH</u>
6.	 <u>Hindiston</u>	16.	 <u>Turkiya</u>
7.	 <u>Indoneziya</u>	17.	 <u>Fransiya</u>
8.	 <u>Italiya</u>	18.	 <u>Koreya</u>
9.	 <u>Kanada</u>	<b>Respublikasi</b>	
10.		19.	 <u>Janubiy Afrika</u>
<b>Respublikasi</b>		20.	 <u>Yaponiya</u>

## **Katta sakkizlik**

**Katta Sakkizlik** yoki **Sakkizlik Guruhi G8** ([ing.](#) *Group of eight G8* - Katta Sakkizlik G8 xalqaro klub maqomiga ega bo'lib, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada, Olmoniya, Rossiya va Yaponiya hukumatlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek ushbu tashkilotni xalqaro muammolarni hal qiluvchi jamiyat, ya'ni norasman ushbu mamlakatlar boshliqlari forumi (Evropa Komissiyasi ishtirokida) deb



ham atashadi. Katta Sakkizlik xalqaro tashkilot hisoblanmaydi, ushbu jamiyat xalqaro kelishuvga ham asoslanmagan va sekretariat ustaviga ega emas. Sakkizlik qarorlari majburan qo'llanilishi kerak bo'lgan qonun hisoblanmaydi.

### **1.1.3-pacm. Katta Sakkizlik G8 a'zolari**

**Nomining kelib chiqishi.** «Katta Sakkizlik» termini «Katta Yettilik»ning logik jihatdan davomi hisoblanadi. G7ning ingliz tilidan o'girganda «Great Seven» deb ataladi, aslida G7 bu «Group of Seven» ya'ni Yetti Guruhi deyilganidir. Ushbu tarjimani G8 ga ham qo'llash mumkin.

**Tarixi.** Ushbu siyosiy jamiyat 1975-yilning 15-17-noyabrlarida AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Olmoniya va Yaponiya o'rtaida tuzilgan va o'sha paytda G6 deb atalgan. 1976-yilda Kanadaning qo'shilishi bilan G7 Katta Yettilik deb atala boshlandi. Rossianing qo'shilishidan keyin G8 Katta Sakkizlik deb ataldi.

## A'zolar

<ul style="list-style-type: none"><li>•  <a href="#">AQSH</a></li><li>•  <a href="#">Buyuk Britaniya</a></li><li>•  <a href="#">Fransiya</a></li><li>•  <a href="#">Italiya</a></li></ul>	<ul style="list-style-type: none"><li>•  <a href="#">Kanada</a></li><li>•  <a href="#">Germaniya</a></li><li>•  <a href="#">Rossiya</a></li><li>•  <a href="#">Yaponiya</a></li><li>•  <a href="#">Evropa Ittifoqi</a> (kuzatuvchi sifatida)</li></ul>
---	---

Dunyo bo'yicha umumiy tashqi qarzdorlik 2018 yilning birinchi choragida 8 trillion AQSh dollarga o'sib, 247,2 trillion dollar yoki global YalMning 318 foiziga yetdi. Shunday qilib bu boradagi rekord yangilandi, deb xabar berdi RBK Xalqaro moliya instituti(XMI) ma'lumotiga asoslanib.

Mazkur tadqiqotda dunyodagi qariyb 70 davlat va hudud qamrab olingan. Dunyo qarzlarining asosiy qismi(178,3 trln. dollari) rivojlangan iqtisodiyotlar hisobiga to'g'ri kelsa, qolgani(68,9 trln.i) rivojlanayotgan davlatlarga tegishlidir.

Ushbu raqamlar XMI tomonidan har chorakda yangilanadi va unda hukumatlar, banklar, nomoliyaviy korporatsiyalar va uy xo'jaliklari qarzlari hisoblab chiqiladi.

Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarning nominal xorij valyutasidagi qarzi(banklar majburiyatlarini inobatga olgan holda) birinchi chorakda eng yuqori daraja – 5,5 trln. dollarga yetgan. Ularning katta qismi(78 foizi) korporatsiyalarga taalluqlidir. Valyuta qarzlariga eng ko'p bog'lanib qolgan davlatlar sifatida Argentina, Vengriya, Turkiya, Polsha va Chili ko'rsatib o'tildi. O'z navbatida taraqqiy topayotgan mamlakatlar bank sektoridagi valyuta qarzlari hisobot davrida 785 mlrd. dollarni tashkil etgan. Vaholanki, bu ko'rsatkich 2010 yil birinchi choragidagi 110 mlrd. dollar edi. Tahlilchilar fikricha, mazkur trend yuan tebranishlari oldida XXR moliya sektori zaifligi o'sib borayotganini ko'rsatmoqda.

Ayni chog'da jahonda o'sish ko'rsatkichlari sekinlashuvi, uning geografik jihatdan turlicha ekanligi kuzatilyapti. Shuningdek, kredit xatarlaridan xavotirlanish borligi uchun AQShda stavkalar kutilganidan tezroq muddatda oshirildi. Natijada Kanada, Fransiya, Shveytsariya kabi ilg'or davlatlarda korporatsiyalar va uy

xo‘jaliklari qarzlari tarixiy maksimumi yangilandi. YaIMga nisbatan qarz AQSh, Avstraliya, Shveytsariya, Daniyada ko‘paygan bo‘lsa, Germaniyada, aksincha, sezilarli darajada pasaydi. Xalqaro qarz bozorida dollarda qarz olgan mamlakatlar eng katta xatarga duch kelishi mumkin. Albatta, AQShdan tashqari. Sababi Federal zaxira tizimi(FZT) stavkalarining ko‘tarilishi Amerika valyutasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ayni paytda taraqqiy topgan davlatlarda xalqaro obligatsiyalarning 30 foizi dollarda bo‘lsa, 2019 yil birinchi choragiga kelib ular bo‘yicha olingan umumiy qiymati 900 mlrd. dollarlik qarz yopilishi kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlar esa 2019 yil yakuniga kelib 2,7 trln. dollarlik obligatsiyalar va sindikat kreditlari bo‘yicha majburiyatlarini uzishi lozim. Shularning uchdan bir qismi dollarda to‘lanishi joiz. Dollarda olingan qarzlarni qaytarib berish bo‘yicha eng katta xatarga duch keladigan davlatlar sifatida Argentina, Kolumbiya, Misr, Nigeriya(har birining olgan tashqi qarzidan 75 foizi dollarda), Meksika(62 foiz), JAR(57 foiz), Braziliya(50 foiz) va Turkiya(47 foiz) ko‘rsatib o‘tilgan. Rossianing bu boradagi ko‘rsatkichi 20 foizdan ziyod bo‘lsa, eng kam miqdor Indoneziya, Saudiya Arabistoni, Tailand, Hindiston va Xitoya tegishli bo‘lib turibdi.

Davlatning texnologik jihatdan taraqqiy etganligi uning iqtisodiy va siyosiy barqarorligiga chambarchas bog‘liqdir. Quyida jahondagi texnologik taraqqiy etgan o‘n yetakchi mamlakatga qisqacha sharh beramiz, deb yozadi terabayt.uz sayti

## **Yaponiya**

2015 yil holati bo‘yicha baho bersak, kunchiqar mamlakatni eng texnologik rivojlangan davlat sifatida e’tirof etishga haqlimiz. Avtomobilsozlik, robot texnikasi, elektron texnika, metallurgiya, seysmik barqaror inshootlar qurilishi kabi sohalarning barchasiga yuqori texnologiyalar chuqrur kirib borgan. Bu o‘rinda yaponlarning ta’limi va faniga urg‘u berish joiz.

## **AQSh**

Birinchi bo‘lib Oyga odam chiqargan, birinchi atom bombasini yaratgan va yana dunyoga bir qancha kashfiyotlar taqdim qilgan davlat ikkinchi o‘rinda. Texnologik jihatdan eng yaxshi ta‘minlangan armiyaga ega. Fazoni o‘zlashtirish sohasida yetakchi. Farmatsevtika va telekommunikatsiya sohalarida ilg‘ordir.

### **Janubiy Koreya**

LG, Samsung va Hyundai singari brendlар vatani. Nanotexnologiyalar va robotsozlik sohalariga janubiy koreyalik olimlar qo‘shgan ulkan hissani ta’kidlamay iloji yo‘q. Koreya Respublikasining fan va texnologiya vazirligi zamonaviy ilg‘or texnologiyalarga oid ko‘plab milliy dasturlarni moliyalashtiradi. Birgina fakt: Janubiy Koreyadagi o‘rtacha internet tezligi AQShdagidan uch barobar ortiq.

### **Isroil**

Fazoviy texnologiyalar bo‘yicha yetakchi besh davlatdan biri. Yahudiylar davlatida eksportdan kelgan daromadning 35 foizi texnologik sohaga sarflanadi. Qolaversa, Isroilda elektromobilarni zaryadlovchi yirik infratuzilmaviy tarmoq mavjud bo‘lib, bu fuqarolarga katta yengillik yaratgan.

### **Germaniya**

Mercedes-Benz, Audi, BMW va Volkswagen vatani. Mashinasozlik bo‘yicha xay-tek uyasi. Nemis olimlari kosmonavtika va nanotexnologiyalar bo‘yicha ham faol shug‘ullanyapti. “Maks Plank jamiyati” va “Gotfrid Vilgelm Leybnits” kabi ilmiytadqiqot muassasalari nomi dunyoga tanilgan.

### **Kanada**

Sanoat sohasidagi murakkab tadqiqotlar, biotexnologiyalar, fazoni o‘zlashtirishda faollik, bularning barchasi Kanadaga xos. Kanada hukumati texnologik sektorni rivojlantirishga mablag‘ni ayamaydi: YaIMning 1,8 foizi ilmiy-tadqiqotlar va tajriba-konstrukturlik ishlariga sarflanadi.

### **Buyuk Britaniya**

Qachonlardir parovoz, reaktiv va elektr dvigatel, cho‘g‘lanma lampochka kabi ixtirolarni dunyoga bergen Britaniya texnologik taraqqiy etgan mamlakatlar o‘nligiga kirishga to‘la haqlidir. Aviatsiya, avtomobilsozlik, farmatsevtika kabi sohalarda ingliz orolchasi yetakchilar safida.

### **Xitoy**

Xitoy deganda Tayvanni ham tushunamiz. Xitoy shiddat bilan rivojlanyapti, shu bilan birga taniqli brend va texnologiyalarni sotib olmoqda. Keling, sanab ko‘raylik: Volvo, Great Wall, Lenovo, Huawei, Acer, Asus, BBK, BenQ, D-link, Gigabyte, HTC va yana bir qancha.

### **Finlyandiya**

Zamonaviy jihozlarga ega sog‘liqni saqlash tizimi jahonda eng yaxshilaridan deb tan olingan. Dong‘i ketgan Nokia brendining vatani mobil kommunikatsiya sohasida ham ilg‘ordir. Oxirgi yillarda hukumat tomonidan biologiya, bioenergetika va ekologiya sohalari rivojiga urg‘u berilmoqda.

### **Singapur**

Kichik shahar-davlat jahoning biznes yuritish uchun eng qulay shart-sharoitlarga ega mamlakati hisoblanadi. Kambag‘al va kichik davlat ilg‘or texnologiyalari infratuzilmaga ega jamiyat qura olishiga Singapur yaqqol misoldir. Bugunga kelib Singapur jahondagi eng tezkor internet tizimi, qulay va shinam jamoat transporti va har bir fuqaro kamida bitta smartfonga egaligi bilan g‘ururlana oladi.

### **1.1.2 -jadval**

Rivojlangan davlatlarda mamlakat miqyosidagi ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlarga xarajatlarning YaIM dagi ulushi ( % larda)<sup>2</sup>

Yillar	A QSh	Yap oniya	Evropa ittifoqi-15	Evro pa ittifoqi- 25	Ro ssiya	Hin diston	Xitoy
--------	----------	--------------	-----------------------	----------------------------	-------------	---------------	-------

<sup>2</sup> “Problemy teorii i praktiki upravleniya” xalqaro jurnali.

1 995	2, 5	2,7	1,8	1,7	1, 0	0,9	0 ,6
2 000	2, 7	2,9	1,9	1,8	1, 1	0,9	1 ,0
2 005	2, 7	3,2	1,9	1,9	1, 3	1,5	1 ,5
2 010	3, 2	3,3	2,0	1,9	1, 0	2,0	1 ,7
2 020 (i stiqbol)	3	3,5	2,3	2,2	2, 3	2,4	2 ,5

Bu jadval ma'lumotlari bizga jadvalda keltirilgan davlatlarda ilmiy tadqiqot, tajriba-konstrukturlik va texnologik ishlarga qilinayotgan xarajatlarning mamlakat YAIM dagi ulushini ko'rsatadi. Jadval ma'lumotlari bizga 2010 yilda 1995 yilga nisbatan innovatsion faoliyat uchun qilinayotgan xarajatlarning YAIM dagi ulushi AQSh da 0,7, Yapaoniyada 0,6, yevropa Ittifoqi 15 da 0,2, yevropa Ittifoqi 25 da 0,2, Rossiyada 0,0, Hindistonda 1,1 va Xitoyda 1,1 foizga o'sganini ko'rsatadi. Bunga asoslanib aytishimiz mumkinki eng yuqori o'sish sur'atlari Hindiston va Xitoy davlatlarida kuzatilmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarda bozor tajribasida muhim belgilardan yana biri bular juda turli darajadagi mamlakatlardir. CHunki ancha rivoj topgan, jon boshiga YAIM ko'p to'g'ri keladigan Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari bilan birga juda qoloq mamlakatlar ham ko'p. Eron ko'rfazi, yangi industrial Osiyo mamlakatlari albatta boshqalardan o'z iqtisodiy darajasi bo'yicha farqlanadi.

Bu guruhdagi neft eksport qiluvchi OPEK mamlakatlarini ajratadilar. CHunki tabiiy boylikka ega mamlakatlar o'z iqtisodiyotini ancha mustahkamlab, kelajakda rivojlanish imkoniga ega bo'ladilar.

Asriy qoloqlik, tabiiy qashshoqlik, dengizga chiqishdan mahrum bo'lgan, tabiiy ofatlar tez duch keladigan sharoitdagi kam rivojlanayotgan mamlakatlar soni ortmoqda

va ular hozir 47 taga etgan. Bulardagi eng muhim muammo qoloqlik, qashshoqlikni oldini olish uchun iqtisodiy resurslarning yoqligidir.

Uchinchi mamlakatlar guruhi o‘tuvchi iqtisodiyotlilar bo‘lib, bular asosan sobiq sotsialistik ma’muriy-buyruqbozlikdan bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlardir. Bu 12 Markaziy va SHarqiy Yevropa mamlakatlari va 15 Sobiq Ittifoq respublikalaridir. SHuningdek, Mongoliya, Xitoy va Vietnamlardir. Bu guruhdagi mamlakatlar jahon YAIMning 12 %ini xosil qiladi. Buning ichida Rossiya – 3%, Xitoy – taxminan 12 %ni tashkil etadi. Hozirgi vaqtga kelib sobiq sotsialistik ma’muriy-buyruqbozlik iqtisodi tizimida faqat Kuba va SHimoliy Korea mamlakatlari qoldi.

Jahon miqyosida hali-xanuz o‘z ta’sir kuchini saqlab turgan bugungi globallashuv va jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini bartaraf etish sharoitida dunyo mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligi masalasi asosiy muammoga aylanib bormoqda. Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan ijtimoiy- iqtisodiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, jahon aholisining qariyb 30 foizi qashshokdikda yashab kelmoqda. Shundan uchdan ikki qismi Osiyo davlatlariga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, jahon aholisining 32 foizi uchun (ya’ni, qariyb 2,8 mlrd. aholi) oziq-ovqat muammosi hal qilinmagan<sup>3</sup>.

O‘tgan bir yilda sayyoramiz aholisi 78,5 million kishiga oshib, 2018 yil 1 yanvarda qariyb 7 milliard 445 million kishini tashkil etgan.

BMT tahlilchilarining so‘zlariga ko‘ra, yana 40 yildan so‘ng dunyo aholisi 9 milliard 300 million kishiga yetadi. Asrimiz oxiriga borib esa aholi soni 10 milliarddan ortishi mumkin. Mabodo, tug‘ilish ko‘paygudek bo‘lsa, 15 milliard kishiga yetishi ehtimoli ham bor. Bu haqda BMT Aholishunoslik jamg‘armasi ma'lum qilgan.

